

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI



ILMIY
AXBOROTNOMA

2025

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI

- НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА
- SCIENTIFIC BULLETIN OF
NAMANGAN STATE UNIVERSITY



NAMANGAN DAVLAT
UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2025-5]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427



09.00.00-FALSAFA
journal.namdu.uz
PHILOSOPHICAL

Davronov Otabek Ulug'bek o'g'li

Buxoro davlat universiteti Tarix va yuridik fakulteti Ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

YUSUF QORABOG'YNING ONTOLOGIK QARASHLARI

Annotatsiya: Maqolada o'rta asrlarda falsafa dinning kuchli ta'siri natijasida bo'lgani uchun u davrning faylasuflari ruh, modda, Alloh, tabiat va shu kabi falsafiy masalalarda diniy dunyoqarash bilan rozilashmagan masalasi tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada mutafakkirning diniy dunyoqarashga qarshi o'z qarashlarini ilgari surishi va uning falsafiy ontologiyasi tahliliga diqqat qaratilgan.

Kalit so'zlar: inson, koinot, panteizm, skeptizm, korrupsiya, idealizm, ong, nazariya

Давронов Отабек, сын Улугбека

Преподаватель кафедры социально-политических наук историко-правового факультета Бухарского государственного университета

ОНТОЛОГИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ ЮСИФА КАРАБОГИ

Аннотация: В статье проанализирован вопрос о том, что в Средние века философия находилась под сильным влиянием религии, в результате чего философы того времени не соглашались с религиозным мировоззрением по таким философским вопросам, как дух, материя, Бог, природа и другим подобным темам. Также в статье рассматривается выдвижение мыслителем собственных взглядов, противопоставленных религиозному мировоззрению, и проводится анализ философской онтологии мыслителя.

Ключевые слова: человек, вселенная, пантеизм, скептицизм, коррупция, идеализм, сознание, теория

Davronov Otabek Ulugbek ogli

Teacher, Department of Socio-Political Sciences, Faculty of History and Law, Bukhara State University

ONTOLOGICAL VIEWS OF YUSIF KARABOGI

Abstract: The article analyzes the fact that during the Middle Ages, philosophy was under the strong influence of religion, which led philosophers of that era to disagree with the religious worldview on such philosophical issues as spirit, matter, God, nature, and other related topics. The article also explores how the thinker advanced his own views in opposition to the religious worldview and presents an analysis of the philosophical ontology of thinker.

Keywords: man, universe, pantheism, skepticism, corruption, idealism, consciousness, theory

Mamlakatimizda inson erkin va farovon yashaydigan ma'naviy makonni barpo etish, ma'rifatli jamiyat qurishda islom madaniyatining falsafiy, ma'naviy va ilmiy merosi, umumbashariyat taraqqiyoti rivojiga beqiyos ta'sir ko'rsatgan mutafakkirlarning qarashlarini hayotga tadbiiq etishga oid strategik dasturlar izchillik bilan olib borilmoqda. "...jamiyatda poraxo'rlik va korrupsiyaga qarshi o'ziga xos "ma'naviy immunitet"ni shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelingan. Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom G'azzoliy, Bahouddin Naqshband, Abu Nasr Forobiy, Jaloliddin Rumiy, Abdurahmon Jomiy, Ahmad Yassaviy kabi allomalarning nafs tarbiyasi, axloq komilligi haqidagi fikrlari asrlar mobaynida milliy shuur va ongni shakllantirishda yaqindan yordam bergan" [1.420]. Shuning uchun Yusuf

Qorabog'iyning inson tabiati, uning hayot mazmunini, olamdagi o'rnini, jamiyatdagi roli, shaxs axloqiy kamolotida kamtarlik, jasorat, shahvat, g'azabni tarbiyalash va nifoqni yengish kabi g'oyalarini o'z ichiga olgan qarashlarining falsafiy jihatlarni ochib berish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yusuf Qorabog'iy har narsadan avval borliqni falsafani o'rganadigan obekti deb hisoblab, uning yakka hoida mavjud bo'lgani haqida gapiradi. Mutafakkir fikriga ko'ra, tabiat va uning bir hissasi bo'lgan inson orasida bo'lgan munosabat vohid bilan ko'plik va qism bilan butun orasida bo'lgan munosabatga o'xshaydi. Birlik va ko'plik, qism va butun bir-biridan alohida emas, birlikda mavjud bo'lgani uchun butun mavjudot vohid bir borliqni tashkil etadi.

Qorabog'iy vohid borliq uning shakllarning farqliligi va ko'pliligini aksidentlar deb nomlagan holda ushbu fikrni bir sira falsafiy risolalarida, shu jumladan Ozarbayjonning panteist faylasufi Mahmud Shabustariyning fikrlariga monand shaklda tahlil etishga harakat qiladi.

Borliq bir butunning ifodasidir – muddaosidan kelib chiqqan holda Qorabog'iy alohida-alohida hodisa va narsalarda umumiy alomat izlaydi va bu hollarni bir qancha misollar bilan ochib ko'rsatadi. Mutafakkir bu nazariya bilan aloqador "Haft behisht" asarida borliqni butun narsalarning va hodisalarning majmuasidan iborat deb hisoblagan holda insonning o'zini ham butun aksidentlarga molik bo'lgan bir borliq, deb nomlaydi.

Qorabog'iy mulohazalariga ko'ra, alohida-alohida jism va hodisalarning orasida bo'lgan mushtarak jihatlar barobarlik tashkil etmasligiga bir asosdir. Bundan shunday natija chiqadiki, har bir narsa har bir narsada mavjuddir [2.25a].

Qorabog'iy panteizmida deyilgani kabi, insonning o'zi ham tabiatdan ayrilmaydi. Olamning birligiga subut bo'laroq, insonning ham olam bo'lgani takidlanadi. Dunyo (makro, katta) olam, inson (mikro) olam deb hisoblaydi. Mutafakkir bu hususida yozadi: Harchandki, obrazlar va uning xususiyatlari yo'qlik va hayol kabi ko'rinadi. Lekin haqiqatda farosat sohibi bo'lgan zakoli insonlarning nazarida inson organizmi butun falak va sayyoralarning majmuasidan iborat bo'lgan buyuk dunyoning nusxasidir [2.244a].

Faylasuf inson organizmi bilam koinot orasida o'xshashlik va bog'liqlik bo'lganini ko'rsatish uchun, masalan shunday bir fikrni keltiradi: "Buyuk olamda Zuhaylni taloq, yupetirni jigar, marsni safro, zahroni buyrak va merkuriyni esa badan deb nomlantirdilar [2.244a].

Albatta bu kabi o'xshatish ilmiy nuqtai-nazardan unchalik to'g'ri emas. Lekin bu yerda maqsad borliqning bir vahdat tashkil etganini ko'rsatish bo'lgani uchun, ushbu qarashda panteistik manoni ko'rish lozim. Bu fikr panteistik harakterdagi faylasuf olim Mahmud Shabustariy asarlarida ham uchratish mumkin.

Shabustariy o'zining "Miratul-muhaqqiqin" nomli asarining bir qancha bo'limlarida insonni borliqning ajralmas bir qismi sifatida tilga olgan holda yozadi: "Bilki, dunyoning majmuasi ikki hissadan - tashqi va ichki qismlardan iborat. Zohiriy hissa planetalar, unsurlar, ma'dandan iborat bo'lgani holda botiniy qismlar esa ruxlar va aqlar dunyosidan iboratdir. Insonlarda ham tashqi, hamda ichki hissalaridir. Inson olamning majmuasidan bir namunadir, dunyoda mavjud bo'lganlar esa insonda ham mavjuddir. Bilki, dunyoning tashqi hissasiga buyuk koinot insonning ichki hissasiga esa kichik nafs deyiladi. Bularni bir-biriga tashbiq etganda har ikkisi barobarlashadi. U vaqt tamomila ma'lum bo'ladiki, inson haqiqatdan o'zi kichik olam va olam esa haqiqatdan o'zi buyuk insondir [3.47].

Yusuf Qorabog'iy vohid borliq haqidagi panteistik qarashlarini ilgari surar ekan tabiatning bir qismi deb hisoblagan insonni ilohiylashtiradi. Bu masalada u o'z salaflariga, shu jumladan Sharqning panteistik- sufiy faylasuf va mutaffakiri bo'lgan Abu Yazid Bistomiy, Abdulqodir Giloniy, Shabustariy, Imomiddin Nasimiy, Xoja Abdul Vafo va boshqa buyuklarning fikrlarini asoslashga harakat qiladi.

Yusuf Qorabog'iy "Har narsani, hatto Allohni ham o'zingdan axtar!" fikrini tahlil etar ekan shunday deydi: "Istagan har bir narsani o'zingdan talab et, chunki sen o'zing har narsasan" [3.48].

Qorabog'iyning ushbu fikri Xoja Abdul Vafoning yuqoridagi fikri bilan deyarli bir xildir. Abdul Vafo shunday deydi: "Doimo talab etgan narsa mening ichimdadir, hatto men o'zimman" [3.48].

Yusuf Qorabog'iy Abu Yazid Bistomiyga o'xshash tarzda insonni Alloh bilan ayniylashtiradi va "menda Allohdan boshqa bir narsa yo'qdir" deya, o'z panteistik fikrlariga muayyan manoda ateistik mazmun beradi. "Oriflarning sultoni bo'lgan Abu Yazid Bistomiyning degani kabi, menda Allohdan boshqa narsa yo'qdir. Men ta'rifga ko'p loyiqman. Mening sha'nim naqadar yuksakdir [2.249b].

Yusuf Qorabog'iyning ushbu fikri Abdulqodir Giloniyning aytgan so'zlarini asoslaganligini ko'rsatadi. Shayx Abdulqodir Giloniy Shunday deydi: "Ey azamatlik! Inson mening sirimdir, men ham uning siriman. Agar inson mening nazdimda o'z maqomini bilsaydi, u vaqt ularning har biri haqqida kunning sultoni har narsaga g'olib kelgan vohid Allohdir" so'zlarini deyish loyiq bo'lardi. Ey buyuk ko'makchi! Insonning jismi, nafi, qalbi, ruhi, qulog'i, ko'zi, dili, oyog'i va qo'li butun bular mening borlig'imni tazahhur etadi. Hamd bo'lsin mening o'z jonimga inson mendan boshqa bir narsa emas. Men esa undan boshqa bir narsa emas [4.118b].

Qorabog'iyning falsafasi panteistik jihatdan boshqa yangi panteistik, Sharq Aristotelizmi va shu jarayonlarning bu va boshqa jihatlarini ham o'zida birlashtiradi. Faylasuf bir necha asarlarida, shu jumladan "Haft behisht" risolasida "Insonning mohiyati, nafs bilan badan orasida bo'lgan munosabat haqida izoh bo'limida avvalo shuni qayd etadiki, insonning haqiqatini tashkil etgan nafsdur, insonning badani esa ushbu nafsni minuvchidir. Bundan ko'rinadiki, Yusuf Qorabog'iy hurufizm jarayonining ahamiyatli namoyondasi bo'lgan Nasimiy qarashlariga hamohang tarzda nafs va insonning o'zini ham "Ruhul – quds va ismi A'zam" nomlagan holda yozadi: "Bilki, insonning haqiqati (mohiyati) bu zulmatli moddiy badan emas, nafsdan iboratdir. Moddiy badan esa uning minuvchisi, u esa miniladigan jarayondir. Ba'zan nafs muqaddas ruhga va buyuk nomga, badanni esa odamga o'xshatadilar. Muqaddas ruhdan odamga puflangan edi. Sayid Nasimiy yozadi: Odamga puflangan ruh- muqaddas ruhdan va buyuk nomdan iboratdir [2.243a-243b].

Bu tur yangi Platonchilik falsafasi ruhida aytilgan soʻzlar, albatta Qorabogʻiyni dunyoqarashining quvvatli jihati deb hisoblanmaydi. Lekin uning keyingi muhokamasi koʻrsatadiki, u bu sohadagi fikrlarini panteistik nuqtai – nazardan tahlil etishga harakat qiladi. “Nafs mujarrad (yolgʻiz, yakka) aql kabi barcha narsalarga molikdir [2.243a-243b].

Bu yerda mutafakkir nafsni (ruhni) bir tarafdin alohida bir boshlangʻich deb koʻrsatadi, boshqa tarafdin uning badan bilan birligini qabul etadi. Va badanni ruhning mujassamlanmasi deb tushunadi. Qorabogʻiy falsafasining panteistik unsurlarini, hususan insonni ilohiylashtirish mayillarini sufiylik formasida sharh etishga harakat qiladiki, bunday hollarda uning qarashlari yanada kuchlanganligini koʻrish mumkin. Masalan u bu jihatdan oʻz fikrlarini Xoja Abdul Vafoning baʼzi qarashlari bilan asoslashga harakat qiladi.

Faylasuf baʼzan Patonning ikki olam – gʻoyalar va ashyolar olami haqidagi nazariyasini eslatadi. Moddiy olamda boʻlgan har nima boʻlsa uning suratini gʻoyalar olamida boʻlganini iddao etadi. Lekin u Platon idealizmini oxiriga qadar ochib bermaydi. U Shunday yozadi: “Mushohada qilinadigan barcha narsalarni gʻoyalar olamida koʻrish mumkin. Gʻoyalar olami esa substansiyalardan iborat maʼnaviy va ruhiy olamdur. His etilish jihatidan jismlarga oʻxshaydi yoki jismdir. Qiziqtirish jihatidan esa yolgʻiz aqlga oʻxshaydi, yoki mujarrad aqlidir. Yohud na materiyadir, na mujarrad aql, balki moddiy olam bilan gʻoyalar olami orasida oʻrta bir darajadir [2.269a].

Lekin bu jihatdan faylasuf muhokamasining oxiriga qadar u Platon idealizmiga ragʻbat koʻrsatishga harakat qiladi va qadimgi yunon faylasufining borliq toʻgʻrisidagi taʼlimotiga ergashganligini koʻrish mumkin. U oʻzining va oʻz salafarining panteistik aqidalari bilan tanishar ekan istar-istamas bu falsafaning ruhiga zid boʻlgan natijalarga keladi. Baʼzan ochiq-oydin platonchilikning borliq toʻgʻrisidagi nazariyasida asosiy oʻrin tutgan gʻoyalar olamiga doir mulohazalariga shubha bilan qaraydi. Masalan, bu jihatdan uning gʻoyalar olamiga siyeptik munosabati Mahmud Shabustariyning qarashlarini eslatadi.

Yusuf Qorabogʻiy fikricha, “Komil insonlik shundan iboratdirki, azal va abad bir-biri bilan qovushsin. Yanada toʻgʻrisi, har ikkisi bir koʻrinsin” [2.247a]. Allomaning panteistik dunyoqarashida borliqning vohid substansiya boʻlmagan masalasi ilmiy asoslar bilan dalillanishida ham, moddiy olam doim harakatda deb koʻrsatilishida ham butun mavjudning – maʼdanlar, nabotot, hayvonot va insonlar orasida ham oʻrtadan koʻtariladi va dunyoning yakkaaligi masalasi ilgari suriladi.

Shu bilan birga Yusuf Qorabogʻiy baʼzan Sharq Aristotelizmi anʼanalari asosida Allohni mutlaq va yakka borliq deb tahlil etadi va uning hech bir sifatga ega boʻlmaganligini taʼkidlaydi. U yozadi: “Haqiqiy borliq zaruratdan yohud mutloqdan iboratdir... Lekin hususiy jihatlar va sifatlar mutloq borliqning tashishida emas. Bu

hususiyatlar unda boshqasiga ong va mansub boʻla olmaydi [3.52]. Demak, Bu aqidaga koʻra, mutloq borliq, yaʼni Bojib Allohndan iborat boʻladi. Narsalarning haqiqiy borligʻi esa ushbu mutloq borliqning mavjud boʻlishi bilan aloqadordir. Bu esa albatta idealizmdir.

Aftidan Yusuf Qorabogʻiy zaruriy borliqni Alloh kabi koʻrsatganda ayri-ayri hollarda bundan ham panteistik natija chiqarishni istaganini koʻrish mumkin. Masalan u zaruriy borliqni Allohning birlik rejimiga oʻxshaydi va barcha narsaning paydo boʻlishida bu vohidning parchalanishi kabi anglamoqqa chaqiradi. Bu ham Platonchilik falsafasidagi mistik panteizمنى asoslagan boshqa bir fikrning davomi ediki, dunyodagi har narsa vohid Allohning parchalari yoki zarralaridir. Zaruriy borliq birlik rejimiga (Allohning raqamlari) oʻxshaydi. Chunki raqamlarni har bir martabasi muayyan xususiyatlarni maydonga keltiradi. Butun mavjudotni panteizm mavqidan mutloq va vohid sanagani uchun buni har narsaning substansiyasi kabi qabul etgani uchun Yusuf Qorabogʻiy ilohiyotning va baʼzi idealist faylasuflarning ishlatgan “yoʻqlik” tushunchasi tanqidi, yoʻqlik aksidensiyalarining ular aytgani kabi tushunilishini qayd etmadi. Qorabogʻiy oʻz qarashlarida aniq koʻrsatadiki jismlar botiniy va zohiriy oʻz shakliga ega. Lekin bunda yoʻqlik ishlamaydi. Chunki yoʻqlikning boʻlmasligini iddao etmoq tabiat va uning ixota etgan narsalarining mohiyatiga ziddir. U yozadi: “...Shakl nisbiy boʻlsada, boshqa bir shaklga oʻtadi. Agar desalarki boʻshliq yoʻqlikni koʻrsatadigan bir jihatdir, u vaqt bu yoʻqlik zamon chegarasi ichkarisida ham vujudga keltirilishi kerak. Holbuki, oldinroq aytganimiz kabi, yoʻqlik faylasuflarning nazaricha, aksidensiya boʻlgan bir holdir. Maʼlumki, bu tabiatning va uning ichkarisida boʻlgan narsalar buning aksidir [3.53].

Bundan koʻrinadiki, Qorabogʻiyni panteizmi bir sira boshqa Sharq va Gʻarb panteistlarining falsafasi kabi materialistik mayllarga ega, dialektik unsurlarga molik hisoblanadi.

Yusuf Qorabogʻiy yuqoridagi qarash bilan yoʻqlik masalasini rad etgan jismlarning zamon tashqarisida mavjud boʻlishi fikrini ilgari suradi. Unga koʻra, jismlar mavjud hajm va miqdorga ega boʻla oladi. Lekin zamon bir miqdor shaklidir. Bu bilan u oʻz zamonining cheksiz boʻlganini eʼtirof etadi. Qorabogʻiy mustaqil harakatlar toʻgʻrisida fikr yuritir ekan, harakatning oʻzi yolgʻiz zamon tashqarisida boʻla olishini yozadi. U yozadi: “Zamonning oʻzi harakat etgan qitʼaning majmuasidan ortiq bir narsa boʻla olmaydi. Chunki, zamon haqidagi toʻgʻri aytilgan bir fikr boʻla olsinki, qitʼaning majmuasining miqdori haqqida toʻgʻri boʻlsin yoki aksincha. Chunki, qitʼaning majmuasining miqdori qitʼaning oʻzi hisoblanadi. Demak, zamon qitʼadan boshqa harakatda boʻlgan jihatning miqdori boʻladi. Demak, harakatdan iborat boʻladi. Bunday boʻlganda zamon harakatning miqdoridir. Zamon miqdoridan iborat boʻlgan harakat esa doiraviydir...” [3.53].

Yuqoridagi fikrlardan shu narsa ayonlashadiki, Yusuf Qorabog'iy zamonining real va obektivligini qabul etgan holda vohid dunyoda yo'qlikni rad etadi.

Qorabog'iy borliq haqidagi falsafiy mulohazalarida tana va ruh munosabati masalasi modda bilan shaklning munosabati kabi ko'riladi va faylasufning diqqat markazidan o'rin oladi. Mutafakkirning fikricha, tana bilan ruh bog'liqdir va ruh tananing harakat beruvchi quvvati, energiya boshlang'ichi rolini o'ynaydi. Faylasufning bu boradagi fikrlari quyidagi parchada yanada aniqroq, tushunarliroq tilda keltiriladi: "Energiya bo'la olsinki, o'z turining bir shakli kabi javharga, yohud harorat kabi arazcha (aksidensiya) aylansin. Ba'zan esa o'z tashqarisida (nafsida) aloqadorlikni keltirishi uchun bir boshlang'ich bo'ladi. Masalan, havoning tabiatan rutubat talab etilishi kabi bir boshlang'ich ko'ringani kabi, bu yerda faqat tana va ruh orasidagi munosabat emas, materiya bilan shakl, umuman ashyolar olamida uzviy aloqalar borasida fikr yuritiladi. Faylasuf substansiya (boshlang'ich) va aksidensiya haqida Sharq Aristotelizmining ananalarini davom ettirar ekan, shunday bir fikrni asoslantirishga chaqiradiki, vohid substansiyaning vujudga keltirgan ashyolar va hodisalar silsilasida bir narsaning boshlang'ichi boshqa bir narsaning oxiri, bir narsaning natijasi boshqa bir narsaning sababi rolini o'ynaydi.

Faylasuf aqidasi ko'ra, narsalarning birining yo'q bo'lishi boshqasining borlig'iga, maydonga kelishini shartlantiradi. Shundayki, yo'qlik bilan borliq biri boshqasi uchun imkon va sabab bo'ladi: "Harchandki, barcha narsalar borliq va imkon tashqarisida azaldan bor yoki yo'q. Negaki, uning sababini o'zi borliqda azaldan mumkindir, shubha yo'qdirki, bu mumkin bo'lganlar tashqarisidadir" [5.78b]

Yusuf Qorabog'iy borliq va idrok haqidagi falsafiy muhokamalarida alohida-alohida aspektlarda nafs, ruh, intellectual aql va shu kabi o'z davr falsafasida markaziy o'rin tutgan masalalarni izohlashga harakat qiladi. Agar Platon falsafasida, ilohiyotda tana ruh uchun zindon deb hisoblansa, Qorabog'iy tana va ruhning aloqasini ruh uchun jannat deb hisoblaydi. "Nafs shunday bir darajaga chiqadiki, (ruhlar) olami tamomila uning nazaridan uzoqlashib unutiladi va mo'minlar uchun zindon sanalgan jismoniy, hayvoniy, qorong'ulik shahvatli olamdan bir narsa ko'rinmaydi. Uning nazarida (nafsning) mo'minlar uchun jahannam deb hisoblangan moddiy olam esa jannat ko'rinadi" [2.246b].

Biroq, mutafakkir ba'zi o'rinlarda Sharq faylasuflari kabi ruhning yuksalish darajalaridan kelib universal aqlga chiqishi va boshqa shakllarga o'tishi haqida o'z qarashlarini bayon etadi. U yozadi: "Kamil insoniy nafslar ham yolg'iz kamoltga chiqish uchun natijasida boshqa shakllar kasb etadi [2.246b].

Nafsning badan bilan amaliy sur'atda birlik tashkil etishi masalasiga kelganda, Qorabog'iy bu birlikni bir tomondan inson organizmining his va harakati bilan,

boshqa tomondan esa uning takomillashishi va bu sohada diqqatga loyiq fikrlarni ilgari suradi. U yozadi: "Bilki, ruhning tana ustidagi rahbarligi bir necha vosita bilandir. Birinchisi, his va harakatning kamayishi bilan, ikkinchisi, tananing o'zining mavjudligining ta'siri bilan, uning takomillashishi bilan.... [2.256b].

Yusuf Qorabog'iy nafs o'z rivojlanish jarayonida bir qancha farqli bosqichlardan o'tganini ko'rsatadi. U bu bilan inson organizmidagi fizik va ma'naviy quvvatlarning dialektik birligini muayyan darajada ifoda etadi. U yozadi: "Bilish lozimki, nafsning birinchi rivojlanish bosqichi shundan iboratki, u tanaga ega bo'lar ekan nabotiy nafsning ishini ko'radi. Undan so'ng taraqqiy etar ekan hayvoniy nafsning ishini va vazifasini o'z o'rniga keltiradi. Bu jarayonda u ham his etkalarning ham harakatlarini tark etadi" [2.259b].

Qorabog'iy mulohazalariga ko'ra, nabotiy va hayvoniy nafslar, yohud uning o'z ifodasi bilan aytsak nabotiy va hayvoniy quvvatlar nafsning xizmatchilari hisoblanadi. U nabotiy nafsning nabotiy quvvati deb nomlanishining sababini borliqlarning spesifik xususiyati bilan aloqadorlikda deb ko'rsatadi. Inson organizmida bo'lgani kabi o'simliklarda ham rivojlanish mavjud. Alloma bu masalaga aloqador nabotiy quvvatlar va ularning vazifasi haqida yanda mufassal shaklda izoh beradi. Faylasuf fikricha, nabotiy quvvat to'rt omildan iborat:

Oziq quvvati; buning vazifasi oziqni tananing ajralmas o'girmoqdir [2.252b]. Bu vazifani o'z o'rniga keltirishda oziqlantiruvchi quvvat yordamchi quvvatlardan istifoda etadi. Bu xizmatchilar jalb etuvchi, saqlovchi, xizmatchi va daf etuvchi quvvatlardan iboratdir. Bu masalalarda Qorabog'iy har bir yordamchi quvvatning izohini ham beradi. Uning fikricha jalb etuvchi quvvat oziqni jismning qismlari bo'lgan meda, jigar va qon tomirlari kabi hazm etadigan deb ko'rsatadi.

Saqlovchi quvvat takroran medaga kelgan ozuqni saqlagan holda uning hazm bo'lishi uchun zamin hozirlaydi. Mutafakkir qayd etadiki, "Saqlovchi quvvat medaga kelgan ozuqani ihotaga etadi. Ozuqa qancha oz bo'lsa, u shu qadar yaxshi bo'ladi. Saqlovchi quvvatning borlig'iga shunday bir subut ko'rsatiladi.

Xizmatchi quvvatni alloma hazm jarayonidagi muhim element deb hisoblaydi. Uningcha, hazmning birinchi bosqichi og'izdan boshlanadi. Chunki, terisi bilvosita medianing terisiga yopishadi. Oziq og'izda qancha ko'p chaynalsa, u shuncha ko'p yaxshi hazm bo'ladi. Hazm bo'lgan oziq medada **halim** shakliga tushadi. Hazmning ikkinchi bosqichi jigarda yuz beradi. Hazmning uchinchi bosqichi tomirlarda, to'rtinchi bosqichi esa badanning qismlarida yuz beradi.

Qorabog'iy inson va hayvon organizmida ikki boshqa quvvatning mavjud bo'lganini qayd etadiki, bulardan biri sevuvchi, yohud jalb etuvchi, boshqasi esa harakatlantiruvchi quvvatlardan iboratdir.

Mutafakkir sevuvchi quvvatni organizmda bo'lgan g'azab va shahvat mayli deb hisoblab, unga shunday ta'rif beradi: "Sevuvchi shunday bir quvvatdirki, uning manbai yurakdir. Bu qavvatning ishi shundan iboratki, bir jism yoki hodisani tasavvur etib unda xayr yohud zararni tark etganda unga qarshi bizda muayyan mayl vujudga keladi. U narsaning foydali ekanligiga ishonar ekan bizda vujudga kelgan maylga tabiiy, istasa tushuncha va maslahat asosida har ikki holda "shahvat" mayli deyiladi. Bunga aloqador holda, mutafakkir ko'rsatadiki, insonlarda yemoqqa, ichmoqqa bo'lgan tabiiy quvvatlar shahvat maylining tug'ilishi jihatidir. Insonlarning xastalikka qarshi dori ichishi esa shahvat maylining tushungali jihatini ko'rsatadi. Ushbu bahsda tabiiy va tushuncha asosida bo'lgan mayllarning bir-biriga bo'lgan qarshim aloqalaridan tanishar ekan Qorabog'iy qayd etadiki, ba'zan ixtiyoriy amal va harakatlar tabiiy maylning ta'siri oldida yuz beradi va unga tobe bo'ladi. Misol uchun bu va yoki boshqa bir dorini ichmoq yohud tark etmoq. Agar tabiiy va maslahatli mayllar bir-birini to'g'ri tushunsa u vaqtda maslahatli mayl

ustun keladi. Agar ular o'z quvvatlari asosida bir-biri bilan barobar kelsa, u vaqt ixtiyoriy amal ham vujudga kelmas [2.267a-267b].

Harakatlantiruvchi quvvatga kelganda esa Qorabog'iy uning umuman sevuvchi quvvatning tobeligida bo'lganligini qayd etadi. Bu quvvatning vazifasi asablarda va azolarda tana qismlarini harakatga keltirishdan iboratdir. Bu quvvatni eng yuksak darajada ifoda etgan ixtiyoriy va irodali harakatdir [2.267a-267b].

Qorabog'iy fikricha, nafsga xizmat qiladigan nabotiy quvvatlardan farqli hayvoniy quvvatlarning ham katta roli va ahamiyati bor. Faylasuf hayvoniy quvvatlar haqida fikr yuritar ekan, asos e'tiboriga ko'ra Arastu va Sharq peripatetizmini davom ettiradi.

Xulosa qilib aytganda, Qorabog'iyning borliq to'g'risidagi nazariyasining asosiy jihatlarini yuqorida sharh etilgan masalalar tashkil etadi. Uning falsafasining umumiy jihatlaridan birini idrok tog'risidagi fikrlar tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Тошкент: "O'zbekiston", 2021. B.442.
2. Yusuf Qorabog'iy. Haft behisht. B.289.
3. A.Aminzoda. Azarbayjonda falsafiy va ijtimoiy-siyosiy fikr tarixidan.
4. Yusuf Qorabog'iy. Tatumatul-Havaish fi izalatul- G'avaiq. B.118.
5. Y.Qorabog'iy. Tatumatul- Havaish bar molla Jalol. B.78.

TARIX FANLARI**07.00.00 - ИСТОРИЧЕСКИЕ НАУКИ****HISTORICAL SCIENCES****Poyi Kalon ansambli-Buxoroning tarixiy va me'moriy durdonasi.**

M.Nurmuxammedov, A.Erqo'ziyev..... 436

Farg'ona vodiysi viloyatlarida qishloq xo'jaligi aerodromlarining atrof-muhitga ta'siri.

D.Norqo'ziyev..... 439

IQTISODIYOT FANLARI**08.00.00 - ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ****ECONOMIC SCIENCES****Risklarning yuzaga kelish sabablari va ularni boshqarish asoslari.**

B.Mirzayev..... 443

Ta'lim muassasalarida brend yaratish strategiyasi: marketing va boshqaruvning integratsiyalashuvi.

U.Buriev..... 448

FALSAFA FANLARI**09.00.00 - ФИЛОСОФСКИЕ НАУКИ****PHILOSOPHICAL SCIENCES****Zamonaviy o'zbek jamiyatida ijtimoiy – madaniy qadriyatlarning ahamiyati va ularni rivojlantirish yo'llari.**

A.Tojiboyev..... 453

Ekologik madaniyatning ekologik muammolarini bartaraf etishdagi ahamiyati.

N.Xolmirzayev..... 458

Virtual va real borliq o'rtasidagi chegaralarning yo'qolishi masalasining ijtimoiy-falsafiy tahlili.

D.Raxmatullayev..... 461

Jamiyat taraqqiyotini o'rganishda sivilizatsion yondashuvning asosiy mezonlari va xususiyatlari.

A.Hakimov..... 466

Abu Rayhon Beruniyning falsafiy qarashlarining shakllanishi va rivojiga ijtimoiy-siyosiy muhit va g'oyaviy jarayonlarning ta'siri.

S.Xoldarov..... 471

Ijtimoiy o'zgarishlar va jamiyat barqarorligi: jadid ziyolilarining milliy-madaniy g'oyalari (ijtimoiy-falsafiy tahlil).

N.Farxodjonova..... 475

Madaniy kapitalning shakllanishida qadriyatlar asosiy mezon sifatida.

G.Karimova..... 479

IX-XII asrlarda markaziy osiyoda tasavvuf falsafasi: ruhiy kamolot sari yo'l.

S.Evatov..... 483

Milliy yuksalish jarayonida yangi ijtimoiy ongning shakllanish bosqichlari va xususiyatlari.

S.Berdikulova..... 488

Yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda najmiddin kubro merosidan foydalanish uslublari.

O.Safarboyev..... 493

Farovon hayot haqidagi falsafiy tafakkurning sarchashmalari.

R.Hasanov..... 496

Sotsiogerentologiyada "yolg'iz keksalik" fenomenini o'rganishning ayrim nazariyalari tahlili.

L.Eryigitova..... 500

Гигиена и чистота как основа здоровья в Исламе.

O.Ражабов, Э.Зоиров, М.Атоева..... 504

Yoshlar ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishda ijtimoiy fanlarning roli (falsafa fani misolida).

Z.Aripova..... 508

Yusuf Qorabog'iyning ontologik qarashlari.

O.Davronov..... 511

Hunarmandchilik yoshlar o'rtasida ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash vositasi sifatida.

J.Mahmudjonov..... 516

Oila institutida iqtisodiy zo'ravonlik tushunchasining falsafiy tahlili.

D.Abdulfaizova..... 519

O'zbekistonda demokratik jarayonlarining o'zgarishi va uni oilalarga ta'siri.

O.Dovranova..... 523

O'zbekistonda harbiy-vatanparvarlik tizimi.

X.Ikromov..... 527